BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

D.M.Xolnazarova
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida integrativ yondashuvning ahamiyati va uning bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash orqali talabalarning kompleks bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini ochib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, kasbiy kompetensiya, fanlararo bog‘liqlik, bilim va ko‘nikmalar, integrativ yondashuv.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida mutaxassisdan nafaqat o‘z sohasining tor doirasi bo‘yicha bilim, balki keng ko‘lamli multidissiplinar bilim talab etilmoqda. An’anaviy ta’lim tizimi ko‘pincha fanlarni bir-biridan ajratilgan holda o‘qitish natijasida talabalarda bilimlar sintezi va amaliy vaziyatlarda ularni birlashtirish qobiliyati yetishmovchiligiga olib kelmoqda. Shu sababli, integrativ yondashuv — turli fanlar, metodlar va bilim sohalarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish — bo‘lajak mutaxassisni tayyorlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. UNESCO tomonidan ilgari surilgan “uzluksiz ta’lim” konsepsiyasi ham shaxsning hayot davomida kasbiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi ta’lim siyosatida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Integratsiyalashgan ta’lim muhiti talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va real ishlab chiqarish jarayonlariga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda kasbiy mehnat talablarining murakkablashuvi va multidisiplinar xarakteri an’anaviy fanlararo yondashuvlarning talabaning kelajakdagi ish faoliyatiga tayyorlashda yetarli samaradorlikka ega emasligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish, o‘quv jarayonida talabaning bilim, ko‘nikma va professional kompetentsiyalarini mukammalshakllantirish nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Integratsiyalashgan ta’lim muhiti o‘quv dasturlarini birlashtirish bilan cheklanmaydi; u talabaning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini, ijodiy yondashuvini, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham strategik ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan samarali muloqot qobiliyati va tashkiliy malakalar o‘quv jarayonida uzviy integratsiya qilinadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishi lozim.

Integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning eng muhim yondashuvlaridan biri nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishdir. Talabalar faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirib qolmasdan, ularni real ish sharoitida qo‘llash imkoniga ega bo‘lishlari zarur. Bu yondashuv talabaning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, chunki u nazariy konseptlarni murakkab vaziyatlarda qo‘llashga majbur bo‘ladi. Shu bilan birga, nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirish talabaning professional malakalarini tizimli shakllantirishga yordam beradi va ularni kelajakdagi ish faoliyatida samarali, mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassisga aylantiradi. Metodik jarayonda nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiya qilish uchun vaziyatli o‘yinlar, laboratoriya mashg‘ulotlari va case-study metodlari qo‘llaniladi, bu esa talabaga murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish talabaning muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuv va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu yondashuv integratsiyalashgan ta’lim muhitining markaziy komponenti sifatida

talabaning professional tayyorgarligini mukammal darajada shakllantiradi va zamonaviy mehnat bozorining talablariga moslashishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan ta’lim muhiti quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi:

1. Fanlararo integratsiya – turli fanlar mazmunini o‘zaro bog‘lash orqali yaxlit kasbiy tasavvur shakllantiriladi.

2. Nazariya va amaliyot birligi – amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari va loyiha faoliyati orqali bilim mustahkamlanadi.

3. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish – kommunikativ, axborot-kommunikatsion, muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalari shakllanadi.

4. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash masofaviy ta’lim, multimedia vositalari, simulyatsion dasturlar o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan ta’lim asosida tahsil olgan talabalar kasbiy vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ularning amaliy tayyorgarlik darajasi an’anaviy ta’lim shakliga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Integratsiyalashgan ta’lim muhiti bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. U fanlararo yondashuv, kompetensiyaviy model va innovatsion texnologiyalar uyg‘unligida amalga oshiriladi. Natijada talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, mustaqil fikrlash va kasbiy masalalarni hal etish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Integratsiyalashgan metodika esa ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassis tayyorlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv talabalarning bilim darajasini quyidagi yo‘nalishlarda sezilarli darajada oshiradi:

1. Bilimlarning tizimlashuvi ya’ni talaba bir fan asosida ikkinchi fanning qonuniyatlarini tushunadi, bu esa bilimlar orasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi.

2. Kasbiy moslashuvchanlik - multidissiplinar bilimga ega mutaxassis o‘zgaruvchan ish muhitida tezroq moslashadi.

3. Muammolarni kompleks hal qilish - integrativ yondashuv orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishda bir nechta fanlar (masalan, huquq, iqtisodiyot va psixologiya) kombinatsiyasidan foydalanishni o‘rganadilar.

Integratsiyaning samarali bo‘lishi uchun ta’lim jarayonida quyidagi ko‘rsatkichlar o‘sib borishi kuzatildi

• Kognitiv faollik (bilimni qabul qilish tezligi);
• Analitik tafakkur (ma’lumotlarni solishtirish qobiliyati);
• Amaliy mahorat (nazariyani amaliyotga tatbiq etish).

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, integrativ yondashuv shunchaki metodik vosita emas, balki yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashning fundamental modeli hisoblanadi. Biroq, ushbu yondashuvni joriy etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Xususan, o‘qituvchilarning fanlararo bilim darajasi pastligi va o‘quv dasturlarining qat’iy iyerarxik tuzilishi integratsiyaning to‘liq amalga oshishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bilan birga, integrativ yondashuvni pedagogik jarayonga tatbiq etish uchun faqat fanlarni birlashtirish kifoya emas, balki o‘qitish metodikasini ham transformatsiya qilish lozim. Masalan, huquqiy tafakkurni rivojlantirishda nafaqat huquqiy normalarni, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ham tahlil qilishga yo‘naltirilgan interaktiv metodlar qo‘llanilishi zarur.

Integrativ yondashuv bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. U talabalarda keng qamrovli dunyoqarashni shakllantiradi va ularni zamonaviy mehnat bozorining murakkab talablariga tayyorlaydi. Ta’lim muassasalarida fanlararo integratsiyani kuchaytirish uchun o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish vao‘qituvchilarning multidissiplinar tayyorgarligini oshirish strategik vazifa sifatida belgilanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Амирханова Л.Б., Селимова Г.А.Об интегрированном обучении филологическим дисциплинам в школьном образовании // Современные проблемы науки и образования. – 2016. – № 2.
2. Ушинский К. Д. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. М.:Педагогика, 1974, с. 349.
3. В.И.Загвязинский. Теория обучения: Современная интерпретация. – М.:, 2004.
4. R.A.Mavlonova, N.Rahmonqulova. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent - ILM ZIYO. – 2009.

GENDER TENGLIGI VA KADRLAR BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

G‘.M.Xolmatov
Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tengligi va kadrlar salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda inson kapitalining ahamiyati ortib borayotgan bir sharoitda gender tengligini ta’minlash masalasi ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada gender tengligi tushunchasining nazariy asoslari, uning tarixiy shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan. Muallif gender tengligini ta’minlash orqali inson resurslaridan samarali foydalanish, innovatsion rivojlanishga erishish va inklyuziv jamiyatni shakllantirish mumkinligini asoslaydi. Tadqiqot natijalari gender tengligini kadrlar siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, kadrlar salohiyati, inson kapitali, ijtimoiy-falsafiy tahlil, barqaror rivojlanish, inklyuziv jamiyat, gender stereotiplari, shisha shift, kompetensiya, kadrlar siyosati, innovatsion rivojlanish.

Gender tengligi va kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish sharoitida inson kapitali har qanday davlat va tashkilotning asosiy strategik resursiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, gender tengligini ta’minlash nafaqat ijtimoiy adolat tamoyili, balki kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishning zarur sharti sifatida ham qaraladi. Tarixiy jihatdan qaralganda, jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy rollar aniq chegaralangan bo‘lib, bu holat ko‘plab hollarda ayollarning ta’lim olish, kasbiy rivojlanish va boshqaruv jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini cheklab kelgan. Zamonaviy falsafiy yondashuvlar esa insonni jinsidan qat’i nazar, ijtimoiy taraqqiyotning teng huquqli subyekti sifatida ko‘rib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining qarori 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasida “so‘nggi to‘rt yilda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilish” belgilangan [1]. Bu islohotlar natijasida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzi sezilarli darajada oshdi, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligi kengaydi. Ayniqsa, ta’lim olish, kasb-hunar egallash va tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun yaratilgan imkoniyatlar xotin-qizlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishida muhim omil bo‘lmoqda. Shu bilan birga, davlat

organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etilib, bu boradagi ishlar tizimli asosda olib borilmoqda.

Kelgusida ham ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni har qanday zo‘ravonlik va kamsitishlardan himoya qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, jamiyatda haqiqiy tenglik va adolatni ta’minlash, barqaror taraqqiyotga erishish aynan ayollar va erkaklarning teng imkoniyatlari hamda hamkorligiga bog‘liqdir.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda gender tenglik tamoyillarini hayotga izchil tatbiq etish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon nafaqat ijtimoiy adolatni ta’minlash, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va inson kapitalini yuksaltirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Xususan, davlat siyosati darajasida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o‘zbek tilida so‘zlangan nutqida mamlakatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilab berildi [2]. Ushbu nutqda gender tenglik masalasiga alohida urg‘u berilib, u davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etildi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Jumladan, yangi shakllangan parlament tarkibida ayol deputatlar sonining sezilarli darajada ortgani bu boradagi amaliy natijalardan dalolat beradi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi tushunchasi faqat huquqiy tenglik bilan cheklanmaydi, balki real imkoniyatlar tengligini ham o‘z ichiga oladi. Bu esa ta’lim tizimi, mehnat bozori, boshqaruv institutlari va madaniy qadriyatlar tizimida chuqur transformatsiyalarni talab etadi. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish jarayonida gender yondashuvni hisobga olish, avvalo, yashirin diskriminatsiya shakllarini aniqlash va bartaraf etishni nazarda tutadi. Masalan, “shisha shift” fenomeni, ya’ni ayollarning yuqori lavozimlarga ko‘tarilishidagi ko‘rinmas to‘siqlar hali ham ko‘plab jamiyatlarda saqlanib qolmoqda. Bu holat inson kapitalidan to‘liq foydalanilmasligiga olib keladi.

Ko‘p yillar davomida dunyoning aksariyat mintaqalarida ayollar davlat boshqaruvida turli to‘siqlarga uchradi. Hatto 1900-yillarning boshlarida ham siyosatga faqat erkaklar sohasi sifatida qaraldi[3]. Biroq, ayollar harakati va Ikkinchi Jahon urushi kabi madaniyatni o‘zgartiruvchi voqealar ayollarning huquqlari va siyosatdagi rollarini asta-sekin oshirdi[3]. Shunga qaramay, ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki juda kam.

Inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, insonning mehnat bozoridagi samaradorligi uning ta’limi, malakasi va to‘plagan ish tajribasiga bog‘liq hisoblanadi. Ushbu yondashuvda ayollarning oilaviy majburiyatlari, ayniqsa bola tug‘ilishi va uni parvarish qilish bilan bog‘liq holatlar ish faoliyatida uzilishlarga sabab bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Natijada ayollar erkaklarga nisbatan uzluksiz ish tajribasini kamroq to‘plashi mumkin, bu esa ayrim hollarda ularning kasbiy tajribasi va mehnat unumdorligiga ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini yuzaga keltiradi [4].

Shu asosda ba’zi nazariy qarashlarda ayollar mehnatining unumdorligi, qoida tariqasida, pastroq bo‘lishi mumkin degan xulosa ilgari suriladi. Biroq bu umumiy xulosa sifatida qabul qilinsa, u barcha ayollarga bir xil darajada tegishli degani emas, chunki real hayotda individual qobiliyat, ta’lim sifati va ish sharoitlari juda katta rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, zamonaviy iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi bilan har ikki jinsda ham yuqori malakali va bilimli ishchilar ulushi ortib bormoqda. Bu esa mehnat bozorida jinsga emas, balki malaka va samaradorlikka asoslangan tanlovni kuchaytiradi. Shunday sharoitda ayollarning mehnat bozoridagi faol ishtiroki kengayishi tabiiy jarayon sifatida qaraladi.

Agar bunday sharoitda ayollar mehnat bozoridan chetlashtirilsa yoki ularning imkoniyatlari cheklansa, bu iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi va diskriminatsiyaning saqlanib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, zamonaviy yondashuvlarda teng imkoniyatlar yaratish,

moslashuvchan ish sharoitlari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, gender tengligi va kadrlar boshqaruvini rivojlantirish masalalari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Gender tengligi — bu faqat erkak va ayol huquqlarining tengligi emas, balki jamiyatda adolat, imkoniyatlar barqarorligi va inson salohiyatidan to‘liq foydalanish tamoyilidir. Shu jihatdan qaraganda, kadrlar boshqaruvi tizimida gender omilini hisobga olish tashkilotlar samaradorligini oshirish, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, gender tengligi inson qadri, erkinligi va ijtimoiy adolat tushunchalari bilan uzviy bog‘liq. Kadrlar boshqaruvida esa bu tamoyil meritokratiya, ya’ni bilim va qobiliyatga asoslangan tanlov tizimini mustahkamlaydi. Natijada jamiyatda diskriminatsiya kamayib, inson kapitalining sifat jihatidan o‘sishi ta’minlanadi. Shuningdek, gender tenglikni ta’minlash va kadrlar boshqaruvini takomillashtirish o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Bu esa nafaqat tashkilotlar darajasida, balki butun jamiyat miqyosida barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda izchil siyosat yuritish, ong va madaniyatni yuksaltirish, hamda ilmiy yondashuvlarni keng qo‘llash dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son.https://lex.uz/docs/-5466673.

2. Sh.M.Mirziyoyev. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so’zlagan nutqini o’rganish va keng jamoatchilik o’rtasida targ’ib qilish. Toshkent, “Ma’naviyat”. 2021.B.280.

3. Iyer, L., Mani, A., Mishra, P., Topalova, P.. The power of political voice: Women’spolitical representation and crime in India. Harvard Business School BGIE Unit Working Paper,2001. (11-092).

4. Egamberdiyeva N. ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash masalalari. Toshkent. “Mahalla va oila”. 2024. B.116.

5. Амирҳўжаев, Ш., Ғуломжонов, О. Бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштириш. Scientific progress, 2001. 1(6), -B. 204-208.